

**Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romanida Xonzodabegim obrazi****Mirsharipova Shahzoda Shavkat qizi**

BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Tel: (99) 705-35-35

**Annotatsiya:** Maqolada Xonzodabegim obraziga tahliliga alohida e’tibor qaratilgan. Amir Temurning kelini Xonzodabegimning hayoti, oilaviy munosabatlarda ishtiroki, ruhiyati, ma’naviy olami, badiiy xarakter sifatidagi o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish maqsad qilingan. Asosiy e’tibor qaratilgan jihat tarixiy voqelikning badiiy asarlarda talqin etilishida ijodkorlarning mahorati masalasidir.

**Kalit so‘zlar.** Tarixiy manbalar, tarixiy roman, Xonzodabegim obrazi, temuriylar davri, temuriy malikalar, ayollar obrazi, tarixiy haqiqat, badiiy talqin.

Mustaqillik yillarida yaratilgan tarixiy romanlarda Amir Temurning oilaga, ayollarga munosabati masalasini talqin e’tishga e’tibor kuchaydi. Shu sababli o‘zbek adabiyotida temuriy malikalarning badiiy siymosi aks ettirilgan ko‘plab asarlar yuzaga keldi. Tarixiy romanlarda temuriylar davri voqeligi talqinida temuriy malikalar bilan bog‘liq jihatlar ayniqsa e’tiborni tortadi. Amir Temur oilasiga mansub bo‘lgan, Sohibqironning kelini – Xonzodabegim obrazining badiiy talqini bilan bog‘liq masalani o‘rganish asosida bunga yanada aniqlik kiritish mumkin.

Temur va temuriylarga oid ma’lumotlar ishonarli aks ettirilgan mukammal asarlardan biri “Zafarnoma” bo‘lib, ushbu asarda Temurning haramidagi ayollar bilan birga uning kelinlari haqida ayrim ma’lumotlar keltirilganligining guvohi bo‘lamiz. Unda Sohibqironning hurmat va e’tiboriga tushgan kelinlaridan biri – Xonzoda begim haqida quyidagicha yoziladi: “Shaxzoda Jahongirning Yoshi yigirmada erdi va andin ikki o‘g‘ul qoldi, amirzoda Muhammad Sulton Xonzodadin tug‘ib erdi va amirzoda Pir Muhammad,

Baxt Malik og'okim, Ilyos Yasuriyning qizi erdi, andin tug'ib erdi"<sup>1</sup>. Asardan keltirilgan parchada Amir Temurning Jahongir ismli o'g'lining haramida bo'lgan ikki kelini haqida so'z bormoqda. Bulardan Xonzoda begim qat'iyatli, bir so'zliligi va Sohibqiron oldida o'z fikrini hayiqmay ayta olishi bilan Amir Temur nazariga tushgan kelinlaridan hisoblanadi.

Amir Temur saroyida alohida hurmatga sazovor bo'lgan, Sohibqiron kelinlari orasida o'z fikri va so'zini hukmdorga erkin ayta oladigan ayollardan biri – Xonzodabegimdir. Bu ayol Amir Temurning hurmati va marhamatiga sazovor bo'lgan kelinlaridan bo'lib, aynan ana shunday xarakteri bilan Amir Temur nazariga tushgan. Muhammad Alining "Ulug' saltanat", Shahodat Isaxonovanning "Bibixonim" asarlarida Xonzodabegim obrazi tasviri keltirilgan. Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanida ham Xonzodabegim obraziga qisman to'xtalib o'tilgan.

Amir Temur xonadoni uchun yana bir odat mavjud bo'lib, quyidagi parcha orqali buni ko'rish mumkin: "Yosh vafot etgan akaning bevasini inisiga xotin qilib berish odati azaldan bor edi. Sohibqironning katta o'g'li Jahongir Mirzo yigirma yoshida vafot etganida, uning ikki o'g'liga ona bo'lgan bevasi Xonzoda begim marhumning inisi Mironshoh nikohiga o'tkazilgan edi"<sup>2</sup>. Demakki, Xonzodabegim ham ushbu odatga ko'ra Bu ayol shaxzoda Jahongir Mirzoning ayoli bo'lib, Shaxzodaning vafotidan so'ng Amir Temur buyrug'iga asosan Mironshop Mirzo nikohiga o'tgan.

Ayni ushbu voqea Sh.Isaxonovanning "Bibixonim" romanida ham o'z aksini topganligi ko'rish mumkin: "Xonzoda Begimni buyuk Amir shajarasi uchun emas, balki ziyrakligi, aql-farosoti uchun hurmat qilardi. Jahongir Mirzo vafotidan so'ng Xonzoda Begimni o'g'li Mironshoh Mirzo nikohiga o'tkazishining ham sababi shu edi"<sup>3</sup>.

Amir Temur tomonidan bunday ishning qilinishiga sabab o'z oilasiga mansub bo'lgan temuriy malikalarning sarson bo'lmasligi va ularning farzandlari Temuriylar sulolasi muhitida o'sib-ulg'ayishini ta'minlashdan iborat bo'lgan.

<sup>1</sup> Шарафиддин А. Ё. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 81.

<sup>2</sup> Qodirov P. Ona lochin vidosi. Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – B.37.

<sup>3</sup> Исахонова Ш. Бибиixonим. – Тошкент: Davrpress, 2011. – Б.34.

Amir Temurning taqdiri bir-biriga o'xshash bo'lgan kelinlaridan yana biri sifatida Mulkat Og'oni ham ko'rsatishimiz mumkinki, u ham erining vafotidan so'ng Xonzoda begim singari Amir Temurning boshqa o'g'li, ya'ni Shohruh mirzoga nikohlab berilgan.

H.Sattoriyning "Hazrat Sohibqiron" kitobida Xonzoda begim haqida quyidagicha ma'lumot keltiriladi: "Shu joyga ikki oylik Xalil Sultonni yo'rgaklagan Xonzodaxonim keladi (U oldinroq Mironshoh Mirzoga uzatilgandi), Bu tashrif sharafiga katta bazm uyushtiriladi"<sup>4</sup>.

Хонзода бегимнинг саройдаги мавқеи унинг фаҳм-фаросатлилиги, зийраклиги ва тўғрилиги боисидан бўлгани билан боғлиқ бадий талқинлар тарихий асарларда диққатни тортадиган жиҳатлардандир. "Xonzoda begimni ulug' Amir shajarasi uchun emas, balki ziyrakligi, aql-farosati, to'g'riso'zligi va haqiqatgo'yligi uchun hurmat qilardi. Jahongir Mirzo vafotidan so'ng Xonzoda begimni o'g'li Mironshoh Mirzo nikohiga o'tkazishining ham sababi shu edi"<sup>5</sup>.

Saroydagi shunchalik hurmat, ulug' Amir nazariga tushish – bularning barchasi bir tomon-u o'z yoridan ayrilish bir tomon edi. Taqdir bu ayolni o'z sinovlari girdobiga tortgan edi. Amir Temur esa keliniga bo'lgan otalik mehri tufayli uning qiynalib qolmasligini o'ylab, o'z xonadonida olib qolishni to'g'ri deb biladi. Shu bois ham uni ikkinchi o'g'liga nikohlab beradi. Afsuski, bu nikoh Xonzoda begimga azob-uqubatdan boshqa narsa bermadi. Xonzoda begimning alamli iztiroblari "Bibixonim" romanida ta'sirli tarzda tasvirlab beriladi: "– Bu ne hayot, bu ne turmush? Bul ne ko'rgulik, bibim? Ortiq chidolmasmen. Bul jabr-u jafolarni yutmoqqa ortiq holim yetmas. – Xonzoda begim tez-tez nafas olgani uchun so'zlari bo'g'ziga tiqilib, bo'linib chiqardi"<sup>6</sup>. Ikkinchi turmushidagi alam-istiroblar, Mironshoh Mirzoning unga bergan azoblari, xo'rlashlari natijasida to'plangan alamlar tasviri asarda Xonzodabegim ruhiy holatining ifodasi sifatida ishonarli aks ettirilgan.

<sup>4</sup> Сатторий Х. Хазрат Сохибқирон. – Т. : Sharq, 2016. – Б. 129.

<sup>5</sup> Исахонова Ш. Бибиixonим. – Тошкент: Davrpress, 2011. – Б.34.

<sup>6</sup> Исахонова Ш. Бибиixonим. – Тошкент: Davrpress, - 2011. – Б.295.

Xonzoda begim Amir Temurga o‘z farzandi singari ardoqli edi. O‘z navbatida Xonzoda begim ham Amir Temurni o‘z otasi singari hurmat qilib, mehr qo‘ygan edi. Amir Temurning o‘limi Xonzoda begimga ulkan bir zarba bo‘ldi va uning kuchli ruhiy iztiroblarni boshidan o‘tkazishga sabab bo‘ldi. Turmush o‘rtog‘i Mironshoh Mirzoning o‘z otasining o‘limiga beparvoligi, hattoki, bu judolikdan xursandchilik holatlarining ham namoyon bo‘lishi Xonzoda begim ruhiyatiga таъсир кўрсатди: “Xonzoda begimning yuzlarida achinish bilan birga nafrat uyg‘ondi. Uyaling, – dedi ovozini balandlatib, – o‘lim birlan dardga ta’na yo‘qdur”<sup>7</sup>. Mironshoh Mirzoning o‘z padariga bo‘lgan mehrsizligi, shafqatsizligi Xonzoda begim ko‘nglida eriga nisbatan nafrat hissini uyg‘otgani uning ruhiy holati tasviri orqali kitobxonga namoyon etiladi.

Birinchi va ikkinchi turmushida baxtga erisha olmagan bu ayolga taqdir yana bir bor o‘z sinovini yubordi. O‘z jonidan bo‘lgan nuri diydasi – o‘g‘li Xalil Sulton ham uni azobladi. Mashuqasi Shod Mulkning makriga uchib onai zorining qalbiga ozor berdi: “Xonzoda begim o‘g‘lining nigohidagi qahrni ko‘rib, shosib qoldi. Nima deyarini, qanday javob qilarini bilmay kalovlandi. Nafsoniyati og‘rib, vujudida ilkis g‘azab tuydi”<sup>8</sup>. O‘z jigarbandining unga begonalardek muomala qilishi, alamli so‘zlari mushtipar ona qalbiga ozor beradi. Shu vaziyatlarda qahramon yuragidan o‘tkazayotgan alam, iztiroblari asarda go‘zal badiiy talqin etilgan.

Taqdiri ayanchli kechgan temuriy malikalardan biri – Xonzodaxonim bo‘lib, uning taqdiridagi fojia sifatida eri va suyukli farzandining vafotini ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga eri Jahongir Mirzoning vafotidan so‘ng o‘zi xohlamagat Mironshoh Mirzoga uzatilishi va uning tahqirlashlariga chidashi singari voqeliklar malika hayotining fojiaiy qismi sifatida tahlilga tortilgan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davrida yaratilgan Temur va temuriylar tarixi aks ettirilgan tarixiy romanlarda Xonzodabegim obrazi keng talqin qilina boshlandi. Bu ayolning achchiq qismati, oilaviy munosabatlarda o‘zini tutish holatlari, ruhiy

<sup>7</sup> Исахонова Ш. Бибихоним. – Тошкент: Davrpress, 2011. – Б.221.

<sup>8</sup> Исахонова Ш. Бибихоним. – Тошкент: Davrpress, 2011. – Б.294.

kechinmalari singari jihatlar yozuvchilar e'tiboridan chetda qolmadi, ushbu o'rinlar keng miqyosda badiiy talqin etildi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абдусаматов Ҳ. Тарих ва бадий талқин. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 184 б.
2. Axmedov I. Dunyo malikalari. – T.: Zarqalam, 2005. – 141 b.
3. Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т.: Абдулла Қодирий, 1994. – 75 б.
4. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Т.: Ёзувчи, 1995. – 351 б.
5. Сатторий Ҳ. Ҳазрат Соҳибқирон. – Т.: Шарқ, 2016. – 510 б.
6. Isaxonova Sh. Bibixonim. – Toshkent: Davs press, 2011. – 304 b.
7. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 305 b.
8. Херман В. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Адабёт ва санъат, 1990. – 64 б.